
SUN SZINING “URUSH SAN’ATI” ASARIDA DAVLAT BOSHQARUVIGA OID MASALALAR**Mumenova Sevinch Ulug‘bek qizi***Toshkent Davlat Transport Universiteti 60310100-siyosatshunoslik
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi***Ilmiy rahbar: Abdullayev Barxayotjon Bo‘riyevich***TDTrU, "Ijtimoiy fanlar" kafedrası, s.f.b.f.d. (PhD), dotsent v.b.***E-mail: muminovasevinch035@gmail.com****Telefon raqami: (77)-343-85-70**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sun Szining “Urush san’ati” asaridagi davlat boshqaruviga oid g‘oyalari ko‘rib chiqiladi. Asarda siyosiy yetakchilik fazilatları, strategik fikrlash, tinchlikni saqlash va rejalashtirish tamoyillari davlat boshqaruvi bilan bog‘liq holda yoritiladi. Shuningdek, “Urushsiz g‘alaba” g‘oyasining diplomatik va tinchlikparvar boshqaruvdagi o‘rni tahlil qilinadi. Davlat boshqaruvidagi hukmdor qanday bo‘lishi kerakligi haqida asardan olingan parchalar bilan keng yoritib beriladi. Bundan tashqari, hukmdor va qo‘mondon munosabatlarining boshqaruvdagi o‘rni yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Sun Szi, “Urush san’ati”, davlat boshqaruvi, siyosiy yetakchilik fazilatları, strategik fikrlash, diplomatiya, donolik, rahbarlik madaniyati.*

Davlatlarning taraqqiyot jarayoniga nazar soladigan bo‘lsak, ularda yuzaga kelgan nizolar, urushlar ko‘pincha noto‘g‘ri boshqaruv tizimi yoki uzoqni ko‘ra bilmaslik bilan bevosita bog‘liq bo‘lib kelgan. Shu sababli davlat boshqaruvida oqilona qaror qabul qilish, vaziyatni to‘g‘ri baholash va strategik tafakkurga asoslangan siyosat yuritish masalalari doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Qadimgi Xitoyning atoqli qo‘mondoni Sun Szi qalamiga mansub “Urush san’ati” risolasi miloddan avvalgi V asrda Xelo hukmdori taklifi bilan yozilgan. O‘n uch bobdan iborat “Urush san’ati” asarida harbiy harakatlarni olib borish bo‘yicha asosiy tavsiyalar keltirilgan. Yozilganiga ikki ming yildan oshiq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, mazkur asar hamon ahamiyatini yo‘qotmagan. Xususan, bu asar AQSH dengiz piyoda qo‘shinlari va harbiy razvedkasi xodimlari uchun o‘qishga tavsiya etilgan kitoblar ro‘yxatiga kiritilgan. Ushbu asar nafaqat harbiy sohada, balki siyosat, huquq va davlat boshqaruvi uchun ham ahamiyatlidir. Asarning ba‘zi g‘oyalari davlat boshqaruvidagi donolik, strategik fikrlash va tinchlikni qadrlash tamoyillarining ahamiyatini ochib bergan²⁷. Sun Szi urushni faqatgina

²⁷ Sun Szi. Urush san’ati. – Toshkent:Asaxiy Books,2025

jang maydonidagi to‘qnashuv emas, katta bir siyosiy jarayon deb baholagan. Bundan tashqari, “Urush san’ati” asarida dono hukmdorda bo‘lishi kerak bo‘lgan bir qancha hislatlar ham ko‘rsatib o‘tilgan va jang vaqtida qo‘mondon va hukmdor o‘rtasidagi bog‘liqliklar yoritib o‘tilgan. Sun Szining fikricha, urush- xalq hayotiga, iqtisodiy masalalarga, hamda davlat boshqaruviga bevosita ta’sir qiladigan omil, shuning uchun hukmdor urush masalasida shoshib qaror qabul qilmasligi kerak. Uning har bir qarori xalq manfaatini o‘ylagan holda bo‘lishi zarur. Maqolaning asosiy maqsadi ham “Urush san’ati” asaridagi boshqaruvda rahbarlar e’tibor berishi kerak bo‘lgan jarayonlarni ko‘rsatib berish va asarda keltirib o‘tilgan fikrlarni davlat boshqaruvi nuqtai nazarida tahlil qilib berishdan iborat.

Sun Szining “Urush san’ati” asari faqat harbiy strategiya qo‘llanmasi bo‘lib qolmay, balki davlat boshqaruvi va siyosiy rahbarlikka oid muhim g‘oyalarni ham o‘zida mujassam etadi. Asarda hukmdorning oqilona qaror qabul qilishi, iqtisodiy resurslardan tejamkor foydalanishi va xalq manfaatini ustuvor qo‘yishi g‘alabani asosiy omillari sifatida talqin etiladi. Sun Szi nazarida davlat qudrati nafaqat kuch bilan, balki aql, reja va uzoqni ko‘ra bilish bilan mustahkamlanadi. Asarda rahbarga oid jihatlarga alohida e’tibor qaratilib, hukmdor donolik, adolat va bosiqlik kabi fazilatlarga ega bo‘lishi zarurligi ta’kidlanadi. Sun Szi asarning ilk boblariniyoq hukmdorga tegishli hislatlar bilan boshlaydi. U “usul va intizom” va “Ruhiyat qonuni” ga alohida urg‘u bergan. Sun Szi “Usul va intizom” tamoyilini armiya va harbiy harakatlarga bog‘lagan. Ammo bu tamoyil boshqaruv uchun eng muhim fazilat hisoblanadi. “Usul va intizom”– armiyani qismlarga to‘g‘ri bo‘linishi, zobitlarning unvonlari, armiyaga ta’minot yetkazib beriladigan yo‘llarnisaqlash hamda harbiy harajatlar nazorati tushiniladi²⁸. Huddi shu kabi davlat boshqaruvida ham amaldorlarni ularning qobiliyatiga qarab to‘g‘ri vazifaga tayinlash va ularning ishni qanchalik puxta bajarishini inobatga olgan holda mukofotlanishi rahbarning boshqaruvda bajarishi kerak bo‘lgan eng muhim omilidir. Agar rahbar boshqaruvning bu usulini qo‘llab, uni qat’iy intizom bilan ushlab tura olsa, bu uning haqiqatdan ham boshqalardan ustunligini anglatadi. “Ruhiyat qonuni xalqning o‘z hukmdori bilan to‘liq hamjihatlikda bo‘lishni ta’minlaydi. Shunda odamlar hech qanday xavfdan, o‘z hayotiga bo‘lgan xatardan ham qo‘rqmay hukmdorga ergashadi”²⁹. Sun Szining bu so‘zlari hukmdor va xalq o‘rtasidagi munosabat iliq bo‘lishini ta’minlanishi, rahbar esa o‘z aholisini ehtiyojlarini qondira olishi shartligi ta’kidlangan. Shundagina jamiyat o‘z rahbariga ishonadi va unga ergasha oladi. Aynan shu masalalar “Urush san’ati”ning xalq hayotiga bog‘liqligini anglatadi. Sun Szining aytishicha, hatto harbiy sharoitda, reja tuzish chog‘ida hukmdorlarni taqqoslash kerak bo‘lsa, “Ikkala tomondan qaysi biri Ruhiyat qonuni bilan hamnafas?”, “Qaysi tomonda intizom qat’iy ravishda tatbiq etilgan?” degan savollar ilgari surilgan. Ya’ni

²⁸ Sun Szi. Urush san’ati. – Toshkent: Asaxiy Books, 2025. – [10-bet]

²⁹ Sun Szi. Urush san’ati. – Toshkent: Asaxiy Books, 2025. – [9-bet]

bu bilan Sun Szi boshqaruv faqatgina harbiy sohani kuchaytirish yoki davlat iqtisodini oshirishdan iborat emas, balki xalq bilan to‘g‘ri ish yuritish masalasi hamligini eslatib o‘tmoqchi. Demak har sohada ham intizomli va kelishilgan boshqaruv usuli eng avvalo talab qilinadigan hislatdir.

Bundan tashqari, davlat rahbariga oid yana bir fazilat shundan iboratki, hukmdorning mamlakatni ichki imkoniyatlari, zaif va kuchli nuqtalarini mukammal bilish bilan birga boshqa davlatlarning ham boshqaruv tizimi va siyosiy holatini o‘rganishi kerakligidir. Sun Szi o‘zining bu fikri bilan dono hukmdorning eng muhim hislatlaridan birini aytib o‘tgan. Davlat rahbari shu asosda oqilona qarorlar qabul qilib, davlat xavfsizligini ta‘minlay oladi. Shuning uchun ham Simon Chkuaseli “Raqibning kuchli va zaif tomonlarini bilish Sun Szi strategiyasining asosidir” deb ta‘riflagan³⁰. Caitlin Huxley esa bu iqtibosni quyidagicha yoritdi: “Har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlari, har bir raqibning esa alohida zaif va kuchli tomonlari bo‘ladi. Ma‘lumotlar tahlili, hududiy hisobotlar va raqibni o‘rganish (opposition research) strategiyani aniq sharoitga moslashtirish imkonini beradi”³¹.

Sun Szi uchun eng oliy mahorat – dushman qarshiligini jang qilmasdan sindira olish hisoblangan. Ya‘ni Sun Szi siyosiy ustunlikni urushdan g‘alaba qozonishdan ham yuqoriroq mavqeda deb bilgan. Haqiqatdan, hamma ham jangda harbiy kuch orqali yutishi mumkin, ammo, aqliy kuch bilan dushmanni jang maydoniga olib borguncha zaiflantirish kamyob mahoratlardan biridir. Hatto bu fikrni 2012-yilda Donald Tramp o‘z Twitter’da keltiradi. John Grey “What Sun Tzu knew” maqolasida: “Tramp kitobxonligi bilan mashhur emas va bu uning minglab tvitlari orasida kitobdan keltirilgan kam sonli iqtiboslardan biridir”-deydi³². Aynan bu g‘oya hozirgi davrda xalqaro munosabatlar uchun ham eng muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Sun Szining bu fikri davlatlararo munosabatlarda diplomatik ish yuritish va urushlardan yiroqda bo‘lishga undaydi. Demak, “Urush san‘ati” boshqaruvda kuch ishlatmasdan aql, sabr, muloqot orqali muammolarni hal etishga undaydigan asardir. Bundan tashqari, asarda hukmdorning boshqa jihatlariga ham e‘tibor berilgan va hukmdorda beshta fazilat bo‘lishi haqida aytib o‘tilgan. Bular:

- donishmandlik;
- samimiylik;
- rahm-shavqat;

³⁰ Chkuaseli S. Sun Szi: Theory, strategy and political campaigns. – [s.I.]: Eutochos, 2025

URL: <https://eutochos.com/sun-tzu-theory-strategy-and-political-campaigns/> (Murojaat sanasi: 10.05.2026)

³¹ Huxley C. The Art of War provides timeless wisdom for modern campaigns. – [s.I.]: Campaigns & Elections

URL: <https://campaignsandelections.com/industry-news/the-art-of-war-provides-timeless-wisdom-for-modern-campaigns/> (Murojaat sana: 10.05/2026)

³² Grey J. “What Sun Tzu knew”. – [s.I.]: The new statesmen, 2020

URL: <https://www.newstatesman.com/long-reads/2020/01/sun-tzu-the-art-war-politics?> (Murojaat sanasi: 10.05.2026)

- qat’iyat;
- jasorat.

Albatta, donishmandlik – ya’ni kuchli aql sohibi bo’lish eng ustun fazilat, ammo, mukammal hukmdor uchun buning o’zi kifoya qilmaydi. Boshqaruvda ba’zan qattiqo‘llik va yumshoqlikni ham muvozanatda ushlash kerak. Shuning uchun, Sun Szing “ushbu besh fazilatni egallagan g‘olib bo‘lar va mag‘lubiyatga uchramas” –degan so‘zlari bejizga emas. Sababi hamma ham bu qobilyatlarni umumlashtira olmaydi. Bu vazifani bajarish kuchli intizom va qat’iyat talab qiladi. Ushbu besh omil boshqaruvda rahbarlar uchun jang vaqtda qo‘mondonlar uchun eng muhimi hisoblanadi. Sun Szi qo‘mondon va rahbar o‘rtasidagi munosabatlarga ham alohida e’tibor bergan. Sun Szi hukmdor va sarkarda o‘rtasidagi munosabatlarni muvozanat asosida qurishni taklif etadi: hukmdor umumiy siyosiy yo‘nalishni belgilaydi, sarkarda esa harbiy vaziyatdan kelib chiqib mustaqil qarorlar qabul qiladi. Bu yondashuv davlat boshqaruvida vakolatlarni oqilona taqsimlash g‘oyasiga mos keladi. Xususan, asarning “Olov bilan hujum qilish” ya’ni 12-bobida shunday deyilgan: “Dono hukmdor rejalarini oldindan tuzadi, yaxshi qo‘mondon esa zaxiralarni tayyorlab qo‘yadi”³³. Ya’ni reja tuzish hukmdorning asosiy fazilatlaridan biri hisoblanadi, ayniqsa, bu siyosiy masala yuzasidan tuzilayotgan bo‘lsa, yaxshi qo‘mondon esa har qanday vaziyatga ham tayyor turishi nazarda tutilgan. Buni boshqaruv siyosati bilan bog‘laydigan bo‘lsak, rahbar har qanday vaziyat uchun zaxira rejalarini to‘g‘ri tuzishi kerakligi, rahbar qo‘l ostidagilar esa uning favqulotda buyruqlarini bajarishi uchun doimo tayyor turishi zarurligini aytishimiz mumkin. “Dono hukmdor ehtiyotkor bo‘ladi, yaxshi qo‘mondon ham hushyorlik bilan harakat qiladi. Bu mamlakatni tinch, armiyani esa butun saqlash yo‘lidir”. “Urush san’ati” asarida dono hukmdor va bilimli qo‘mondon doimo bir-birini to‘ldirishi kerakligi shu kabi misollar bilan to‘liq ochib berilgan. Yana shuni aytib o‘tish kerakki hukmdorning ish yuritish usullari orasida hiyla ham bo‘lishi kerak. Sun Szi qulay vaziyat kelganda rejalarini o‘zgartirish kerak degan. Bu bilan u dushmani hiyla orqali ishontirish kerakligini, agar keyingi tuzilgan reja avvalgisidan mukammalroq bo‘lsa, uni ikkilanmay o‘zgartirish kerak, ammo maqsad o‘zgarishsiz qolishi kerakligini aytmoqchi. Shuningdek, “Urush san’ati”da axborot va bilimning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Sun Szi dushman haqida to‘liq va aniq ma’lumotga ega bo‘lmagan hukmdor mag‘lubiyatga yuz tutishini ta’kidlaydi. Josuslik va razvedka masalalariga bag‘ishlangan boblar davlat boshqaruvida axborot tahlili, maxfiylik va strategik ma’lumotlarning ahamiyatini ochib beradi. Bu jihatlar bugungi zamonaviy boshqaruv tizimlarida ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

³³ Sun Szi. Urush san’ati. – Toshkent: Asaxiy Books, 2025. – [86-bet]

Sun Szining “Urush san’ati” asari, aslida urush va harbiy holat uchun yozilgan bo‘lsa ham, uning tub ma’nosida siyosat va davlat ishlariga oid masalalar ham ko‘rsatib o‘tilgan. Masalan, asarning 1-bobida “Urush — bu aldov san’atidir” degan dolzarb fikr keltirilgan. Ya’ni boshqaruvdagi rahbar o‘z maqsadini hech qachon oshkor qilmasligi, uni reja va hiylalar ortiga yashirishi kerak. Shundagina maqsadga aniqlik bilan erishish ehtimoli ortadi, aldov-raqibning noto‘g‘ri xulosaga kelishiga sabab bo‘ladi. Chunki ko‘p holatlarda g‘alabaga qarshi tomonni fikrini chalg‘itish orqali erishish mumkin. Xulosa qilib aytganda, Sun Szining “Urush san’ati” asari boshqaruv san’atini va siyosat uchun ham beqiyos ahamiyatga egadir. Unda ilgari surilgan donolik, strategik fikrlash, sabrli bo‘lish, tinchlikka intilish kabi masalalar bugungi boshqaruv uchun ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Sun Szining “Urush san’ati” asari davlat boshqaruviga oid chuqur va universal g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan manba. Asarda ilgari surilgan rahbarlik, mas’uliyat, axborotga tayangan holda qaror qabul qilish kabi tamoyillar bugungi zamonaviy boshqaruv tizimlari uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois “Urush san’ati”ni nafaqat harbiy, balki siyosiy, diplomatik va boshqaruvga oid asar sifatida baholash mumkin. Sun Szining hukmdor va qo‘mondonda bo‘lishi kerak bo‘lgan ba’zi fazilatlarini sanab o‘tilishi, asardagi boshqaruv san’atiga oid masalalarning keng yoritib berilishi, asardan siyosiy xulosa chiqarishimiz mumkinligini bildiradi. “Urush san’ati”- nafaqat jang uchun, balki boshqaruv, siyosiy strategiyalar, rahbarga xos bo‘lgan asosiy xusiyatlarni tub mazmunida birlashtirgan asardir. “Urush san’ati”dan biz qarorlarni to‘g‘ri qabul qilish, mukammal reja tuzishni va ulardan o‘z maqsadini amalga oshirishda foydalana olishni, harbiy hujumdan avval aqliy hujumdan ishlatishni o‘rganish uchun ideal qo‘llanma sifatida foydalana olamiz. Bu asar bizga kuch bilan emas, balki aql va adolat bilan ish yuritish kerakligini eslatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sun Szi. Urush san’ati. – Toshkent: Asaxiy Books, 2025. – [1-, 3-, 12-, 13-boblar]
2. Grey J. “What Sun Tzu knew”. – [s.I.]: The new statesmen, 2020
URL: <https://www.newstatesman.com/long-reads/2020/01/sun-tzu-the-art-war-politics?> (Murojaat sanasi: 10.05.2026)
3. Huxley C. The Art of War provides timeless wisdom for modern campaigns [s.I.]: Campaigns&Elections, 2023
URL: <https://campaignsandelections.com/industry-news/the-art-of-war-provides-timeless-wisdom-for-modern-campaigns/> (Murojaat sana: 10.05.2026)
4. Chkuaseli S. Sun Szi: Theory, strategy and political campaigns [s.I.]: Eutochos, 2025
URL: <https://eutochos.com/sun-tzu-theory-strategy-and-political-campaigns/> (Murojaat sanasi: 10.05.2026)